


XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

34 167



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

3 273



Oilaviy korxonona

5 312



Xususiy korxonona

40



Aksiyadorlik jamiyati

656




Boshqalar

Mas'uliyati cheklangan jamiyat, birlik



xususiy korxonona, birlik




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyati:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi.


Aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-mart oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi
(2023- yil yanvar-mart oylarida, umumiy sonidagi ulushi %)




2023- yilning yanvar-mart oylarida 1 114 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 962 ta, oilaviy korxonalar 78 ta, xususiy korxonalar 21 ta, muassasalar 22 ta va boshqalar 31 tani tashkil etdi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi
(1- aprel holatiga ko‘ra)



Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)




2023- yil 1- aprel holatiga ko‘ra sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 6 605 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 69,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat korxonalarini soni jami korxonalar va tashkilotlarning 20,3 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 69,1 % ni (jami sanoatdagi ulushi 96,0 %), tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 81,0 % ni (jami sanoatdagi ulushi 1,7 %), suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishda – 70,3 % ni (jami sanoatdagi ulushi 1,7 %), elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashda – 108,8 % ni (jami sanoatdagi ulushi 0,6 %) tashkil etgan.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2 298 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 70,0 % ni tashkil etdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda:

fuqarolik obyektlarini qurishda – o'tgan yilga nisbatan 98,3 % ni (jami qurilishdagi ulushi 12,5 %);

bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan – 64,9 % ni (jami qurilishdagi ulushi 56,6 %);

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarida – 72,2 % ni (jami qurilishdagi ulushi 30,9 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)


2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 9 705 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 79,9 % ni tashkil etdi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:


avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 79,6 % ni (jami savdodagi ulushi 64,4 %);

avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashda o'tgan yilga nisbatan – 76,4 % ni (jami savdodagi ulushi 7,2 %);

avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 81,5 % ni (jami savdodagi ulushi 28,4 %) tashkil etadi.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 325 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 68,2 % ni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 68,6 % ni (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,5 %);

yashash bo'yicha xizmatlar – 62,8 % ni (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 6,5 %) tashkil etadi.


**Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni**
(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 446 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 76,5 % ni tashkil etdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar sonidan nashriyotchilik faoliyatida o'tgan yilga nisbatan – 94,2 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 11,0 %), kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlarida o'tgan yilga nisbatan – 79,4 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 28,5 %), aloqa yo'nalishida o'tgan yilga nisbatan – 75,5 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 47,1 %), axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyatda o'tgan yilga nisbatan 69,4 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 9,6 %), kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqishda o'tgan yilga nisbatan – 56,5 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 2,9 %), dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishda o'tgan yilga nisbatan – 50,0 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 0,9 %) tashkil etadi.

Oilaviy korxonalar soni (1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra 3 273 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 94 taga yoki 3,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 607 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 1 327 taga yoki 45,2 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


2023- yilning yanvar-mart oylarida 78 ta yangi oilaviy korxonalar tashkil etildi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra 34 167 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 3 323 taga yoki 10,8 % ga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 22 749 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 6 170 taga yoki 21,3 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


2023- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 962 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 805 taga yoki 45,6 % ga kamayganligini ko'rsatmoqda.



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni
(2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




**Andijon viloyatidagi xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlar soni**
(2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra 454 tani tashkil etib, ulardan 325 tasi yoki 71,6 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 60 taga yoki 15,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2023- yilning yanvar-mart oylarida viloyatimizda 11 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	2019- y.	2020- y.	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Jami	245	316	359	376	325
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	19	26	24	23	25
Sanoat	167	184	202	205	169
Qurilish	11	20	22	29	21
Savdo	25	37	51	58	56
Tashish va saqlash	2	2	3	4	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7	9	10	9	10
Axborot va aloqa	2	5	4	5	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	5	5	5	3
Boshqa turlar	11	28	38	38	35

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 32 476 tani tashkil etdi.

Ularning hududlar kesimida taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: Andijon shahrida – 25,9 foiz, Asaka – 8,9 foiz, Andijon – 7,5 foiz, Shahrixon – 7,0 foiz, Baliqchi – 6,4 foiz, Oltinko'l – 5,6 foiz, Izboskan – 5,5 foiz, Marhamat – 4,8 foiz, Qo'rg'ontepa – 4,7 foiz hamda Xo'jaobod – 4,7 foiz tumanlarida tashkil etadi.


**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxonona</i>	<i>xorijiy korxonona</i>
Viloyat bo'yicha:	325	185	140
shaharlar:			
Andijon sh.	126	64	62
Xonobod sh.	12	9	3
tumanlar:			
Andijon	31	21	10
Asaka	18	11	7
Baliqchi	7	5	2
Bo'ston	7	6	1
Buloqboshi	16	7	9
Jalaquduq	16	6	10
Izboskan	8	2	6
Ulug'nor	5	3	2
Marhamat	12	9	3
Oltinko'l	20	11	9
Paxtaobod	7	5	2
Xo'jaobod	12	8	4
Shahrixon	19	13	6
Qo'rg'ontepa	9	5	4

Yetakchi o'rinni 75 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu, viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 23,1 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Andijon viloyati iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Xitoy (ulushi 19,4 foiz), Qirg'iz Respublikasi (ulushi 14,8 foiz), Turkiya (ulushi 14,8 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 11,7 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanadilar.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni

(2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida soni

(2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida jamidagi ulushi Andijon shahrida 27,6 %, Asaka 7,8 %, Andijon 7,6 %, Shahrixon 6,8 %, Baliqchi 6,5 %, Izboskan 5,8 %, Oltinko'l 5,6 %, Xo'jaobod 5,0 %, Marhamat 5,0 %, Paxtaobod 4,6 %, Jalaquduq 4,4 %, Qo'rg'ontepa 4,0 %, Buloqboshi 3,1 %, Ulug'nor 2,3 %, Bo'ston 2,0 % tumanlari va Xonobod shahri 1,9 % ni tashkil etadi.


Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi
(2023-yil 1-aprel holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi % da)



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni


(2023- yilning yanvar-mart oylarida, birlikda)




2023- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Andijon (29,5 %), Bo'ston (16,6 %), Andijon shahri (15,4 %), Qo'rg'ontepa (15,4 %), Asaka (10,2 %), Oltinko'l (6,4 %), Shahrixon (2,6 %), Izboskan (2,6 %) hamda Buloqboshi (1,3 %) tumanlari ulushiga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2023- yilning yanvar-mart oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 7- iyundagi PF-5739-son hamda 2022- yil 20- aprel PF-113 Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining 2019- yil 21- avgustdagi 704-son qarori bilan:

- tijorat korxonalari hisobiga 9 oy davomida pul mablag'lari tushmaganligi yuzasidan banklar davlat soliq organlarini tizim orqali xabardor qilishi;

- shundan so'ng, davlat soliq organlari taqdimnomasiga asosan Davlat xizmatlari markazlari korxonani harakatsiz holatga o'tkazishi va bu haqida davlat reyestriga hamda Tizimga tegishli yozuv kiritiladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar - norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.